XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 13 - dekabr VI-58-77-4-62-K/21 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumanidagi ayrim joy nomlariga qayta nom berish va nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 12 oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y, 41-son, 448-modda; 2017 y., 35-son, 914-modda)ning 10-moddasi, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Respublika ekspert komissiyasining 2021 yil 29 iyuldagi 01-14-553-sonli, 2021 yil 15 oktabrdagi 02-14-438-sonli xulosalari hamda tuman hokimining taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Respublika ekspert komissiyasining 2021 yil 29 iyuldagi 01-14-553-sonli, 2021 yil 15 oktabrdagi 02-14-438-sonli xulosalari hamda tuman hokimining taklifi ma’qullansin.

2. Kitob tumanidagi qayta va yangidan nomlangan geografik obyeklar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Po‘latov)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi yangidan nomlangan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Kitob tumanidagi tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga ayrim joy

nomlarining qayta va yangidan nomlanishi munosabati bilan aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Uzoqov) qayta nomlangan va yangidan nom berilgan hududlarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Po‘latov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligi nashrida chop etilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlar Kitob tuman Kengashi raisi **Zakirov A. I.**

Халқ депутатлари Китоб туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-58-77-4-62-K/21-сон қарорига
1-илова

Kitob tumanidagi qishloq ko‘chalarining yangi nomlari

T/r	**Geografik obyekt joylashgan mahalla**	**Geografik obyektning olidingi nomi** **Geografik obyekt turi** **Mahalla fuqarolar yig‘ini** **Ko‘cha**	**Davlat ekspertizasidan o‘tgan nom**
1	Beshqazoq MFY	Beshqazoq MFY	Beshariq mahallasi
2	Hamid Olimjon MFY	Nomsiz ko‘cha	Bog‘ichashma
3	Obikanda MFY	Nomsiz ko‘cha	Mehnatobod
4	Obikanda MFY	Nomsiz ko‘cha	Kuhinur
5	Obikanda MFY	Nomsiz ko‘cha	Chinobod
6	Obikanda MFY	Nomsiz ko‘cha	Elobod
7	Obikanda MFY	Nomsiz ko‘cha	Afrosiyob
8	Obikanda MFY	Nomsiz ko‘cha	Gulg‘uncha

Халқ депутатлари Китоб туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-58-77-4-62-K/21-сон қарорига
2-илова

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMLIGI
180700 Kitob tumani Katta yo`l ko`chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2021 yil "6" dekabr 1-12/3050 -sonli Kitob tumani

Kitob tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i

R. Muxammadiyevga

Ushbu orqali Sizga, Halq deputatlari Kitob tuman Kengashining "Kitob tumanidagi ayrim joy nomlariga qayta nom berish va nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida" gi Qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Normativ huquqiy hujjatlarning Davlat hisobi to‘g‘risidagi Nizom (ro‘yxat raqami 1856, 2008 yil 10 sentabr) ga asosan huquqiy ekspertizadan o‘tkazib berishingiz uchun yuborilmoqda.

Ilova: Qaror loyihasi va ma'lumotnoma varaqdan iborat.

Kitob tuman hokimi A.Zakirov

Baj: Sh.Eshniyazov
Tel: 755427787